

личности обучающегося в условиях инновационных технологий / Под общ. ред. проф. Р.Х.Джураева; отв. ред. проф. В.И.Андриянова. – Ташкент, 2009. – 488 с.

4. Расулов, А., Хужаев, Ш. и Расурова, И. 2022. Наука в Узбекистане: проблемы и перспективы. Общество и инновации. 3, 2 (май 2022), 210–218.
5. М.С.Очилова. (2024). АНАЛИЗ НЕДОСТАТКОВ И ПРЕИМУЩЕСТВ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ УЗБЕКИСТАНА. Research Focus International Scientific Journal, 3(7), 67–73. Retrieved from
6. Охунов, Д., Охунов, М. (2022). Трансформация системы образования Узбекистана и подготовка новых кадров в эпоху цифровизации. Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 1(01), 389–392.
7. Махмутходжаева Л.С. 2021. Онлайн образование и цифровые средства обучения в вузах Узбекистана. Открытое образование. Т.25. №3

INGLIZ TILINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Soatova Moxidil Safarqul qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili
3- kurs talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning qulay usullari, bolalarda ingliz tilini rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlar, uni o'rganishda yuzaga kelayotgan muammolar hamda uni bartaraf etish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: talaffuz, o'qish va yozish amaliyoti, tinglash, til muammolari, o'rganish uslublari, metod, so'z boyligi, tilshunoslik.

MODERN METHODS OF LEARNING ENGLISH

Abstract: This article describes convenient methods of learning English, reforms in the development of English in children, problems that arise in learning it, and ways to overcome them.

Key words: Pronunciation, reading and writing practice, listening, language problem, learning styles, method, vocabulary, linguistics.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: в данной статье рассматриваются удобные методы изучения английского языка, реформы, проводимые для развития английского языка у детей, проблемы, возникающие при его изучении, а также способы их решения.

Ключевые слова: произношение, практика чтения и письма, аудирование, проблемы языка, методы изучения, методика, лексический запас, лингвистика.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish kundan kunga rivojlanib bormoqda. Xorijiy tillarni o‘rganish orqali ko‘plab yurtimiz fuqarolari chet mamlakatlarga o‘qishga, ishga va sayohatga borishmoqda. Bu albatta yaxshi ammo xorijiy tillarni o‘rganish oson emas. O‘rganuvchilarda ba’zan talaffuz jihatdan, eshitish yoki yozish borasida va grammatika borasida bir qancha muammolar kelib chiqadi. Xo‘sish bu muammolarning sababi nimada? Albatta buning sababi ko‘proq mashq qilmaslikda, foydalanish uchun o‘zimizga ya’ni darajamizga mos kitoblarni tanlamaslikdadir. Ma’lumki, hozirgi davrda ta’lim rivojlanayotgan maktablarda xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan xorijiy til o‘qituvchilar oldiga vazifalar qo‘yildi. 2021-yil 6-may kuni Prezidentimiz raisligida xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan video selektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. ”Bundan buyon chet tili o‘qituvchilarining oylik maoshi ularning malakasiga qarab belgilanadi. Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim xalqaro sertifikatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga 40%, yuqori natijalarga erishganlarga esa 50% miqdorida ustama to‘lanadi” deb aytdilar [1]. Ikkinchi tilni o‘zlashtirish asosiy tadqiqot sohasi o‘rganuvchilar tomonidan qo‘llaniladigan o‘rganish strategiyalarini aniqlash va bu strategiyalarning boshqa o‘quvchilarining o‘zgaruvchilari, masalan, darajasi, yoshi, jinsi, motivatsiyasi va boshqalar bilan bog‘liqligi. Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunini hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida xorijiy tillarga o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishda, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod xorijiy tillar o‘qituvchilar tayyorlandi, umum ta’lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo‘yicha multimedia darsliklari, elektron resurslar tayyorlandi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirda yoshlarimiz xorijiy tillarni o‘rganish uchun kerak bo‘ladigan kitoblar yoki ma’lumotlar bazasini oson topishlari uchun turli ilmga bag‘ishlangan saytlar ham mavjud. ”ZiyoNet” tarmog‘i orqali ta’lim muassasalarining xalqaro ta’lim va bilim olish manbalariga kirish imkoniyatlarini orttirish, uning resurs markazini multimedia resurslari, shaxsiy kompyuterlar va mobil uskunalar uchun ilovalar bilan boyitish, ingliz tilida o‘quv va badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarni chop etish ham tashkil qilingan. Bundan tashqari hozirda hamma sohada deyarli ingliz tilini bilish muhim hisoblanib qoldi. Shu sababli davlat testlarida birinchi blok yoki ikkinchi bloklar ingliz tili bo‘lgan. Davlat test markazi manfaatdor vazirliliklar va idoralar bilan birgalikda, ikki oy muddatda, 2015/2016 o‘quv yillaridan boshlab, barcha oliy ta’lim muassasalariga kirish testlari blokiga xorijiy tilni kiritish bo‘yicha takliflar Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan[3]. O‘rta umumiyligi ta’lim maktablarida chet tili o‘qitish metodikasi fani erishgan yutuqlarni egallash talabalar uchun qanday imkoniyatlarni yaratadi?

- 1.Kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi;
- 2.Ta’limning zamonaviy metodlari, tashkiliy formalari va vositalari bilan atroficha tanishtiradi;
- 3.Talabalarning olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo‘llay olishlari uchun ko‘nikma va malakalar hosil qiladi;
- 4.Barcha fanlardan o‘zlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarni maktab ta’lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga ko‘maklashadi[4] Bugungi kunda fanda katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 13-dekabrdagi PQ 1875-sonli qarori qabul qilgandan so‘ng, mamlakatimizda chet tillarini o‘rgatish va o‘rganishga e’tibor judayam kuchaygan [5]. Chet tilini o‘rganishga talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu albatta yaxshi. Chunki ko‘proq til bilgan inson sifatli va qulay hamda o‘ziga munosib ish topishi va ancha yaxshigina daromadga ega bo‘lishi mumkin. Faqatgina bular bo‘lib qolmasdan ular chet davlatlarning eng nufuzli universitetlarida o‘qishlari hamda sayohatga ham borishlari mumkin. Xalqimiz orasida beshikdan qabrgacha ilm izla degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan. Haqiqatdan, til bilgan el biladi. Xorijiy tilshunoslik to‘rt tomonga bo‘linadi: o‘qish, tinglab tushunish, yozish va so‘zlash, ularning har biri o‘ziga xos tushuncha va ko‘nikmalarni beradi. Ta’lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish[6]. Til o‘rganishda zamonaviy texnologiyalarning va zamonaviy usullarning o‘rni beqiyos. Texnologiyalardan foydalanish chet tilini o‘rganishning barcha jihatlarida foydalidir. Masalan, tinglash va tushunish uchun bu jarayonni kompyuter, pleyersiz amalga oshirish mumkin emas. Tinglash – bu til o‘rganishning qismlaridan biri hisoblanadi[7]. Kompyuterdan foydalanishda talaba chet tilidagi video filmlarni, namoyishlarni, dialoglarni, filmlarni yoki multifilmlarni tomosha

qilishi va tinglashi mumkin[8]. Hozir albatta har bir yoshlarmizda internetdan foydalanish yaxshi rivojlangan desak noto‘g‘ri gapirmagan bo‘lamiz albatta. Biz bundan chet tilini o‘rganishda ham foydalana olamiz, agar o‘zimizda xohish bo‘lsa. Biz Internet orqali xorijiy ma’ruzachilar bilan aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Yozish mashqlarini elektron pochta orqali xat yozish orqali yaxshilash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 6-maydagi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 23-son yig‘ilish bayonida 2022–yildan boshlab yangidan ishga qabul qilinayotgan chet tili o‘qituvchilariga 2 va undan yuqori darajada bo‘lgan milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lish talabi, 2024/2025 - o‘quv yilidan boshlab maktablarda faoliyat olib boradigan chet tili o‘qituvchilari kamida B2 darajasidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lishlari talab etilishi haqida aytilgan [9]. Chet tili muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o‘zlashtirish orqali o‘quvchi-talabaning to‘plagan til tajribasi me’yorini bilish aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tilini o‘rganishning usullaridan yana biri bu – muhit. O‘rganuvchi o‘rganayotgan tiliga mos ravishda o‘ziga muhit ya’ni sharoit yaratса uni o‘rganishi oson bo‘ladi. Sharoit yaratish qanaqa bo‘ladi? Masalan, o‘rganuvchi xonasini chet el xalqlaridek bezashi, atrofidagi do‘stlari bilan ko‘proq ingliz tilida gapirishi, ko‘proq inglizcha kinolar ko‘rishi va inglizcha qo‘shiqlar eshitishlari mumkin. Albatta bular ham bir muhit hisoblanadi. O‘rganuvchi xuddi chet el hayotida yashayotgandek his qiladi o‘zini. Chet tilini o‘rgatishda, albatta, metod muhim hisoblanadi. Chet til o‘qitish metodi – chet tilini o‘rgatishning amaliy, umum ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvchi ta’minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuasidir[10] . Chet tilini o‘qitish maqsadlari quyidagilar:

1. Amaliy maqsad- chet tilda nutq muloqotini yuritish yozish, gapirish, tinglab tushunish va o‘qish) ni o‘gatish.
2. Tarbiyaviy maqsad – aqliy mehnat malakalarini hosil qilish, o‘quvchilarining bilish faoliyatini oshirish.
3. Ta’limiy maqsad – xotira va mantiqiy tafakkurniri vojlantirish, o‘quvchilar bilim saviyasini va umumiyl madaniyatini yuksaltirish.
4. Rivojlantiruvchi maqsad – o‘quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion xususiyatlarini rivojlantirish [11] .

MUHOKAMA VA NATIJA

Afsuski, hozirgi kunda chet tilini o‘rganuvchilar orasida tarjima borasida ham muammolar uchrab turibdi. Ya’ni ularda so‘z boyligi yetishmasligi sababli matnlarni noto‘g‘ri tarjima qilishlari ba’zi hollarda umuman tarjima qilolmaslik hollari ham kuzatilyapti. Albatta bularning barchasi so‘z boylik kamligi sabablidir. Matnni og‘zaki tarjima qilish g‘ayri metodik usul hisoblanadi. Lug‘atdan

foydalanim, yangi so‘zlarning ma’nolarini ochish maqsadida tarjima qilishga mo‘ljallangan kichik matnlar bo‘lishi mumkin. Bu yerda matnni tarjima qilishdan ko‘zlanadigan maqsad lug‘atdan foydalanishni o‘rgatishdir. Har bir o‘rganuvchi chet tilini o‘rganishdan oldin o‘zining ona tilisini yaxshi o‘rgangan bo‘lishi kerak. Agar u o‘z ona tilisini yaxshi bilmasdan turib chet tilini o‘rganishni boshlagan bo‘lsa, u o‘rganish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga uchraydi. O‘rganuvchining chet tilini o‘rganishdagi vazifasi o‘quv materiali bilan tanishish, mashq qilish hamda o‘zining fikrini bayon etish ya’ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat. O‘qituvchilarning o‘quvchilarning tushunganlik darajasini nazorat qilishi ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Afsuski ayrim o‘qituvchilarning bunga e’tiborlari sust. O‘quvchi mavzuni qay darajada tushunganini, berilgan mashqlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarganini, o‘rgangan narsasini to‘g‘ri qo‘llay olishini nazorat qilish o‘qituvchilarning muhim vazifasi hisoblanadi. O‘rganuvchi o‘rganayotganlarini mustahkamlab borishi, uni hayotda tatbiq etishi, qilayotgan xatolarini boshqa takrorlamasliklari uchun xatolari ustida ishlashlari kerak. Agar ular xatolari ustida ishlashmasa, ular yana o‘sha xatoni qilishlari yoki o‘rgangan narsalari xotiralaridan chiqib ketishi tabiiy holat. O‘qituvchi unga ma’lum bir usulda majburlab o‘rgatishi xato hisoblanadi. Shunday o‘rgandi ham deylik, lekin bundan natija bo‘ladimi? Albatta, yo‘q. U ham o‘zining vaqtini ham o‘qituvchining vaqtini bekorga sarflagan bo‘ladi. Avvalo, u o‘ziga qulay bo‘lgan o‘rganish usulini tanlab olishi kerak. Barchamizga ma’lumki, chet tilini o‘rganish asosan to‘rt bosqichda bo‘ladi. Ular quyidagilar: tinglash, yozish, gapirish va o‘qish. Chet tili asosan shu to‘rt bosqichda o‘rganiladi. O‘rganuvchi mana shu to‘rt bosqichga moslab o‘ziga qulay bo‘lgan zamonaviy usullardan foydalanishi kerak. Masalan, tinglashni oladigan bo‘lsak, buni rivojlantirish uchun o‘rganuvchi turli usullardan foydalanadi. Inglizcha qo‘sishqlar tinglashi yoki inglizcha filmlar ko‘rishi mumkin. Hozirda tinglashning eng zamonaviy usullari podcastlar eshitish, ularni muhokama qilish va inglizcha qo‘sishqlar eshitish matnlari bilan birgalikda. Qo‘sishqlarni matnlariga qarab eshitish foydaliroq. Chunki qo‘sishq eshitish bilan birgalikda so‘zlarning qanday talaffuz etilayotganini o‘rganish ham mumkin. Ingliz tilida talaffuz judayam muhim rol o‘ynaydi. Yoki inglizcha podcastlar ham eshitish tinglashni rivojlantirishning usullaridan biri hisoblanadi. Mening fikrimcha o‘rganuvchi podcastni 3-4 marta agar tushunmasa undan ham ko‘proq eshitishi kerak. Uni tinglab mavzu nima haqida ekanligini bilishi va o‘sha mavzu haqida do‘stlari bilan fikr almashishlari kerak. Qo‘sishqlarni yoki podcastlar eshitib uni varoqqa yozsa ham bo‘ladi. Keyin uni qanchalik to‘g‘ri yozganini tekshirib o‘zining tinglash darajasi qay darajada rivojlanayotganini bilishi mumkin. Ko‘p insonlarda so‘z boyligida ham muammolar bo‘ladi. Bu lug‘atni qanday o‘rganishga bog‘liq. Lug‘atlarni daftarga yozib ketma-ket yodlash usuli allaqachon eskirgan. To‘g‘ri balki bu usul

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

haliyam kimlargadir foyda berayotgandir, lekin bu usul hozirda kam qo'llanilmoqda. Kimlardir stikerlarga yozib xonasining devorlariga osib qo'yish orqali yana kimlardir boshqa usullar orqali o'rganishadi. Hozirgi kunda lug'at yodlashning eng zamonaviy usuli bu - lug'atlarni audio qilib yodlash. Masalan, o'rganmoqchi bo'lgan lug'atlarizni qancha bo'lsa ham farqi yo'q yigirmata bo'ladimi yoki qirqtami farqi yo'q ularni telefoningizning diktafoniga inglizcha va o'zbekcha ma'nosi bilan audio qilib yozing. Keyin uni xohlagan paytizda, xohlagan joyizda eshitishingiz mumkin. Biron joyga borganingizda lug'at yodlash uchun kitob izlab yurmaysiz. O'sha audio qilganingizni eshitsangiz bo'ladi. Xohlasangiz lug'atlarni faqat bitta tildagisini audio qilishingiz mumkin. Keyin ikki tilda audio qilganingizni o'rganib bo'lganizdan keyin bitta tilda audio qilganizni eshitasiz va ikkinchi tildagisini siz aytasiz. Masalan, “especially” so'zini ikki tilda audio qildingiz: especially – ayniqsa, asosan deb audio qildingiz. Keyin bir tilda audio qilasiz: especially deb. Ikki tildagisini yodlab bo'lganizdan keyin bir tildagisini eshitasiz. Bir tilda qilgan audioingiz sizga lug'atni aytса ya'ni especially desa, siz o'zbekchasini o'ziz aytasiz ya'ni ayniqsa, asosan deb aytasiz. Bu lug'at yodlashning eng zo'r usullaridan biridir. Faqat bu usul qoidalariga amal qilishingiz kerak. Ya'ni avval ikki tildagi audioni eshitib yodlaysiz keyin bir tildagisini eshitib o'zizni sinaysiz. Bu usul barcha o'rganuvchilarga ma'qul bo'ladi. Qolaversa, bu usul bilan ular o'rgangan lug'atlarini yanada mustahkamlab olishadi va qay darajada yodlayotganlarini, qay darajada xotiralarida qolayotganlarini bilishlari mumkin. Yoki gapirishni oladigan bo'lsak, bu ham ko'p o'rganuvchilar orasida qiyinchiliklar paydo qilyapti. Buning sababi nimada? Ko'p talabalar oliy o'quv yurtlariga kirish uchun ingliz tilini o'rganishadi. Ammo ular umumiy ingliz tilini emas balki ular ingliz tilining grammatikasini o'rganishadi. Ular oliy o'quv yurtiga kirgandan keyin qolgan skillarda qiynalishadi. Masalan, eshitishda, gapirishda va boshqalarida ham qiynalishlari mumkin. Ular tayyorlanishlari davomida faqat grammatika va testlar yechishlari hisobida mana shunday qiyinchiliklarga uchrashmoqda hozirda. Ular balki grammatikani yoki testlarni yechishni zo'r qilib o'rgangan bo'lishlari mumkin, ammo ular shu narsalarni amaliyda ya'ni nutqlarida yoki yozishlarida qo'llamaganliklari sababli hozirda ba'zi qiyinchiliklarga uchrashmoqda. Agar ular o'sha tayyorgarliklari davomida qolgan skillarni ham oz-ozdan o'rganib uni amaliyotda qo'llab borishsa, oliy o'quv yurtiga kirishganlaridan keyin qiynalishmaydi. Oliy o'quv yurtiga kirgan talaba eng kami 40- 50% bilimga ega bo'lishi ya'ni o'sha skillarda qobiliyati bo'lishi kerak. Afsuski, hozirda bu skillarning ayrimlarida haligacha qiynaladigan talabalar oramizda uchrab turibdi. Biz bularni kamaytirishimiz kerak.

Xulosa: Agar xulosa qiladigan bo'lsak, biz chet tilini o'rganishda barcha to'rtta bo'limlarga ham e'tibor berishimiz kerak. Ko'pchilik ingliz tilida yozish

qismida so‘z boyligining kamligi yoki g’oya bo‘lmanligi sababli qiynalishadi. Bu ingliz tilining bir bosqichi hisoblanadi. Bu bosqich insonning fikrlash tezligini oshiradi. Ingliz tilida yozishimiz yaxshi bo‘lishi uchun bizda ko‘proq so‘z boyligi bo‘lishi kerak. Bu bosqich albatta ko‘proq lug‘atga bog‘liqidir. Biz qanchalik ko‘p so‘z boyligiga ega bo‘lsak, shunchalik yozish qobiliyatimiz oshadi. So‘z boylikni oshirish uchun juda ko‘p lug‘at kitoblardan foydalansa bo‘ladi. Masalan, Destination kitoblari yoki Essential kitoblari lug‘at uchun juda foydalidir. Lug‘at yodlashda Essential kitobining foydasi unda berilgan lug‘atlar ta’riflari bilan birlgilikda berilgan. Bundan o‘rganuvchi ham ayni bir so‘zning ham ma’nosini ham uning ta’rifi va qanaqa holatlarda ishlatalishini bilib oladi. Va yana bu kitobda o‘rganuvchi o‘rgangan lug‘atlarini yanada mustahkamlab olishi uchun mashqlar ham berilgan. Ingliz tilining eng quyi pog‘onasida bo‘lgan o‘rganuvchilar bu kitobning birinchi va ikkinchi qismlaridan bemalol foydalanishsa bo‘ladi. Faqat o‘rganuvchilarning o‘zi undan samarali va qay usulda foydalanishni bilishsa tezroq tilni o‘rganisha olishadi va muvaffaqiyatga erishishadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tilini o‘rganishning juda ko‘p zamonaviy usullari bor. Faqat ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanish har bir o‘rganuvchining o‘ziga va albatta harakatiga bog‘liqidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021- yil 6- may kuni video selektori yig‘ilishi.
- 2.Chamot&ElDinary,1999; El- Dib, 2004; Green &Oksford, 1995; Oksfordva Burri-Stok, 1995 yil.
- 3.“Xalq so‘zi gazetasi“. 11.12.2012-yil. 240(5660-son).Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 05. 07. 2019- yil06 / 19 (3385- son).
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahar 2012- yil 10- dekabr PQ- 1875- sonly qaroridan.
- 5.Jalolov J. “Chet til o‘qitish metodikasi”. Toshkent. - 2012.- 8- 9 b
- 6.N.Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva “Interactive methods in English lessons” (methodical manual), Navoi, 2006.- 40- page
- 7.M. Kholdorova , N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva “ Use of assistance in foreign language teaching”, Tashkent: Tashkent state pedagogical university named after Nizami, 2005.
- 8.O.Hoshimov, I. Yakubov “Methodology of teaching English” (textbook), Tashkent: Sharq Publishing House, 2003.